

Tadqiqot.UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 ОКТЫАВР  
**№33**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
10-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-10**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 41 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Исмонова Турсуной, Наргиза Махмудова</b>	
ФИЛОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА БОБУР АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ.....	7
<b>2. Исмонова Турсуной Зокиржоновна</b>	
СПЕЦИФИКА ОБЩЕПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ.....	8
<b>3. Sanayeva M.I</b>	
BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BILAMAN, BILISHNI HOHLAYMAN, BILIB OLDIM" INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	9
<b>4. Eshonqulov Abdulqosim Bahriiddin o'g'li, To'xtamisheva Dinora G'anisherovna, To'rayev Sunnatali Shokir o'g'li</b>	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILIM FAOLIYATINI TASHKIL E'TISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	12
<b>5. Abduvoitov Ravshanbek Alijonovich, Vasieva Muslimahon Khairullo qizi</b>	
ORGANIZATION OF COMPETENCE-BASED APPROACH AT THE UNIVERSITIES BASED ON MECHANICAL ENGINEERING AND TECHNOLOGY.....	14
<b>6. Baqoyeva Zarina Rayimovna</b>	
STRESS VA TUSHKUNLIK DAN XALOS BO'LISH.....	16
<b>7. Khurulboyev Shukrullo Abdullajonovich, Esonov Kudratbek</b>	
EFFICIENCY OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING PROCESS .....	18
<b>8. Mamajonov A.V., Valiev Durbek</b>	
APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE PROFESSIONAL COMPETENCE .....	20
<b>9. Normurodov Ergash Chori o'g'li</b>	
TERMIZIY ALLOMALAR MEROSI- BOY MANAVIY XAZINAMIZDIR .....	22
<b>10. Ziyodov Odilbek Toshbolta o'g'li, Qurbanov Shahrizod Shavkat o'g'li, Ganiyev Abbos Abror o'g'li</b>	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR .....	24
<b>11. Махбуба Шерматова</b>	
БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАҶНАВИЙ- АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ .....	26
<b>12. Ирода Салимова</b>	
ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ.....	28
<b>13. Raxmatova Hamida Ismatillo qizi</b>	
SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI .....	30
<b>14. Tursunova Feruzaxon Saydullayevna</b>	
МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDA TOVUSH MADANIYATINI TARBIYALASH VOSITALARI .....	32
<b>15. Янгибоев Камол Норбоевич</b>	
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	34
<b>16. Сарибоева Шахноза Мусурмоновна</b>	
ТАЪЛИМДАГИ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ЖАРАЁНИНИНГ АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЎҚИТУВЧИ ШАХСИНИНГ ПЕДАГОГИК УСЛУБИ .....	39



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### ФИЛОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА БОБУР АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ.

**Исмонова Турсуной**

ФарДУ студенти

Телефон:+998907779157

tursunoyismonova5@gmail.com

**Наргиза Маҳмудова**

ФарДУ ўқитувчиси

Телефон:+998904076505

Ўзбек адабиётини Захириддин Муҳаммад Бобурсиз тасаввур этиб бўлмайди. У ўзининг сермаҳсул ижоди билан ўзбек адабий тилининг ривожи ва бойишига катта ҳисса қўшган. Унинг асарларида ўзбек тилининг бойлиги, гўзаллиги, туганмас ифода имконлари тўлалигича намоён этилган.

Захириддин Муҳаммад Бобур ўзбек тили насрый жанрининг асосчилари орасида катта салобатни эгаллади. Унинг «Бобурнома» асари катта аҳамиятга эга бўлган мемуар ҳисобланади. Бобур асарларининг ижобий томонларидан бири - тилининг соддалигидадир. У асарларини содда тилда ёzádi. Бошқаларни ҳам шундай ёзишга чақиради. Бобур параллелизм, тазод, лоф, ўхшатиш, муболага каби бадиий тил воситаларидан қўллади. Бобур ҳалқ оғзаки ижодидан асқициялик маҳоратини ўрганди. Натижада у омоним ва полисемантик сўзлардан ҳамда сўз ўйинларидан усталик билан фойдаланиб, ўзбек тилида туюқларнинг ажойиб намуналарини яратди.

Бобур бадиий проза намунаси бўлган «Бобурнома»ни Ҳиндистонда эски ўзбек тилида яратди. Бу асар ўз даврига нисбатан содда ва образли тилда ёзилган. «Бобурнома» асари жуда қўмматли тарихий-бадиий асар бўлиб, унда Ўрта Осиё, Афғонистон, Ҳиндистон каби мамлакатларнинг XV аср охири, XVI аср бошларидағи аҳволи, географияси, сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти ўз аксини топди. Бу асар ўша даврдаги ўзбек тили аҳволини ўрганиш учун ҳам муҳим манба ҳисобланади. «Бобурнома» асари орқали Бобурнинг ҳалқ жонли тилининг бойликлари чуқур ўрганилиб ва эгаллаб олганлиги, адабий тилни ҳалқ жонли тилига яқинлаштириш учун ҳаракат қилганлиги яққол қўринади. «Бобурнома» асарининг мазмуни ва тилини бойитиш учун Бобур ҳалқ мақоллари ҳамда ибораларига катта зътибор берди. У факат ўзбек мақолларидангина эмас, балки форс-тожик тили мақолларидан ҳам фойдаланди. Булар асар тилининг ширали, оммага тушунарли бўлиши учун хизмат қилди. Масалан: *Капудагини капмаса, каригунча кўйдурур. Козлерини туз тутти. Душман не демас, тушке, не кирмас. Даҳ кужаву дарахтан кужаву (Кишилоқ қайдаю, дарахтлар қайда). Узраш баттар аз гунах (Узр гуноҳдан ёмонроқ). Ан гузарра аб бурд (У кўчани сув олиб кетди). Мард баяран сур аст (Дўстлар билан бирга бўлиб ўлмоқ туйдир).*

«Бобурнома» тилининг муҳим ҳусусиятларидан бири ифоданинг ихчамлиги, соддалиги ва равонлигидир. Бунинг учун у сўзларни танлаб ишлатишга, оз сўз билан кўпроқ фикрни баён этишга ҳаракат қилди. Ўзбек тилининг сўз бойлигидан ижодий фойдаланди, ундаги синоним, омоним ва антоним сўзларни кенг ва ўринли ишлатди. «Бобурнома»да фикрлар кўпроқ содда гап формасида берилади. Кўшма гаплар ҳам содда гапларга ўхшаш тузилишда бўлиб, осонлик билан таркибий компонентларга ажralади: *Ту анда етқунче, менинг билен секиз киши калиб эди.* Бобур Андижон ва унинг атрофидаги шаҳарлар ҳақида маълумот берар экан, улар ҳақида мураккаб бўлмаган, ихчам жумлалар билан фикр юритади: *Мовароуннарх, Самарқанд ва Кеш кўрганидин сўнгра мундин улуғрак кўрган ёқдор, уч давраси бор. Арки жсануб тарафида ваке болуптур. Токкуз тарнав сув кирер. Бу ажабтурким, бир ердан ҳам чикмас.*

«Бобурнома»

<https://www.livelib.ru>



## СПЕЦИФИКА ОБЩЕПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Исмонова Турсуной Зокиржоновна

студентка ФерГУ

телефон: +998907779157

@gmail.com

**Аннотация:** Данная статья о специфике общепсихологических проблем современной личности в обществе. Каждый человек уникален по своему. О факторах играющие наиболее важную роль в формировании личности. О изменении личности в зависимости от ситуации и общества окружающий его.

**Ключевые слова:** характер, когнитивное мышление, специфика личности, среда и мечта.

Характер - это аспект личности, на который влияет опыт, который продолжает расти и меняться на протяжении всей жизни. В то время как личность продолжает развиваться с течением времени и реагировать на влияния и жизненный опыт, большая часть личности определяется врожденными чертами и опытом раннего детства.

Каждый человек по своему уникален и не повторим. Личность человека зависит от нескольких так называемых психологических единиц.

-**Среда** - место где эта личность проживает, его окружение т.е люди(друзья, коллектив)

-**Семья**-( родители, братья/сёстры, родственники)именно они вносят огромный вклад в развитие личности передавая им свои некоторые черты характера. Например даже если один из родителей любит читать, то ребёнку тоже будет любезно читать тем самым он будет учиться лучше чем тех у которых родитель не любят читать. К таким явлениям относится не только характер, но и стиль выражения мысли, черты лица, взгляд и походка. Но больше всего умственные способности.

-**Религия** -как мы знаем, что в каждой религии имеются свои правила, которых должен соблюдать каждый верующий. Например формы поведения со старшими и младшими. Недаром говорят «старших уважай, а младших почитай.»

- **Реакция личности на окружающие его идеи**- Например человек смотрит вокруг и видит , что все читают. Даже из-за стыда человек, невольно начинает, читать.

- **Мечты** -если у человека большие мечты которые могут принести пользу не только им самим, но и остальным, то это на один шаг приближает нас к нашим мечтам. Это конечно, повышает потенциал человека в обществе. Потому что человек всегда стремится достичь своей цели. Он живет, он дышит ради цели(мечты).И при этом становится крепче. Личность включает не только врожденные черты, но и развитие когнитивных и поведенческих моделей, влияющих на то , как люди думают и действуют.

-**Темперамент** - ключевая часть личности, определяемая унаследованными чертами.

Лоуренс Колберг разработал теорию развития личности, в которой основное внимание уделялось развитию нравственного мышления. Основываясь на двух этапном процессе, предложенном в Париже, Кольберг расширил включив в неё шесть различных стадий. Теория подвергалась критике по ряду различных причин. Одна из основных критических замечаний заключается в том , что она не учитывает в равной степени разные полы и культуры. Теория Колберга остаётся важным.

### Список использованной литературы.

1. <https://rosprompersonal.ru>
2. Психология влияния .Роберт Чалдин
3. Семь навыков высокоеффективных людей. Стивен Р. Кови



## BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BILAMAN, BILISHNI HOHLAYMAN, BILIB OLDIM" INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sanayeva M.I  
TFI akademik litseyi  
Biologiya o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Biologiya fani - tabiiy fandir. Biologiyaning sitologiya bolimini o'qish, o'rghanish, o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu vaqtida o'quvchilarda o'z bilimiga ishonchsizlik paydo bo'lib, oqibatda fandan zerikish kabi salbiy holat yuzaga kelishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** sitaloziya, hayot shakllari, prokariot, o'qish, o'rghanish, interfaol metod

Har bir jamyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lism tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'lism tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ungailg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lism samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ta'limumning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, o'quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jaxon pedagogik tajribasi, zamona viy pedagogik texnologiyalarining talaba (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Bugungi zamon biologiya o'qituvchisi esa o'quvchilarga biologiya fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak-ki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqsin. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi kerak. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari, ko'rgazma qurollari asosida tashkil qilsak, bu dars qiziqarli, sifatli chiqadi va ta'lism samaradorligi kafolatlanadi. Interfaol metodlardan biri "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim."metodi bo'lib, uni biologiya darsida qo'llashda yaxshi natijaga erishish mumkin. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim."metodi. Bu metod orqali muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash va o'quituvchining o'quvchilarning nimalarga qiziqishlari, mavzuni o'zlashtirish darajalarini bilib olishga imkon beradi. Ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan ommaviy yoki guruhli ishlash mumkin. Guruh shaklida tashkil etilganda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

Dars jarayoni bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi



Metodni qo'llash jarayoni uch bosqichdan iborat.

1-bosqich. O'quvchilarning o'rghanishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2-bosqich.O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rGANILADI.

3-bosqich.O'quvchilar yangi mavzu bo'yicha ma'lumotlar bilan batafsил tanishtiriladi.

Akademik litseyda tabiiy fanlar birinchi bosqichda o'tiladigan biologiya fanining sitologiya bo'limali "Hayot shakllari. Hayotning hujayraviy shallari. Prokariot hujayraning tuzilishi" nomli mavzusini o'tishda bu metodni qo'llashni ko'rib chiqaylik. Yangi mavzuni bayon qilishdan avval kichik guruhlar tashkil etiladi. Birinchi bosqichda o'quvchilarning "Hayot shakllari. Hayotning hujayraviy shallari. Prokariot hujayraning tuzilishi" mavzusi bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi. O'quvchilar jadvalning 1-ustunini to'ldiradilar. Ya'ni o'qituvchi hali yangi



мавзуни тушунтirmagan bo'lsa-da, o'quvchilar yangi mavzuga doir qanday bilimga ega ega ekanliklarini sxemada ifoda etadilar. O'quvchilar 1-ustunni quyidagicha to'ldirdi deylik.

#### I.Bilaman.

- Viruslar va bakteriyalar orqali tarqaladigan yuqumli kasalliklar
- Oziq-ovqat mahsulotlarini bakteriyalar ta'siri.
- Bakteriyalar yordamida qanday kasalliklar kelib chiqishi.


2-bosqich. Jadvalning 2-ustunida o'quvchilar yangi mavzu bo'yicha nimalarni o'rganmoqchilar, nimalarni bilmaydilar-u, shuni o'zlashtirmoqchi bo'lsalar ustunchaga qayd etadilar. 2-ustun quyidagicha to'ldirdi deylik.

#### II.Bilishni xohlayman.


- Virus qanday tuzilma?
- Hujayra bilan virusning o'zaro ta'sir jarayoni nimaga asoslangan?
- Virus hujayraga qanday yo'l bilan kiradi?
- Bakteriyalarning tuzilishida qanday o'ziga xos xususiyatlar mavjud?
- Bakteriyalar qanday yo'l bilan ko'payadi?
- Ko'k-yashil suv o'tlarining tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati qanday?

3-bosqich. Bunda o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiylar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi. Yangi mavzu quyidagi materiallar tarqatiladi.

1.Ushbu berilgan rasmdagi hayotiy shaklga xos bo'lgan belgilarni juftlab yozing



2.Quyida rasmida berilgan tuzilmalarning qaysi birida reduplikatsiya jarayoni boradi?




3.Berilgan raqamlar va harflarni juftlang

Tegishli hususiyatlar	Organism nomlari	Umumiylar	Xususiy belgilar
1-erkin azotni o'zlashtiradi, 2-gormogoniya yo'li bilan ko'payadi, 3-hujayra qobig'I murien, 4-avtotrof, 5-sharsimon kolloniyali, 6-hujayra ustida shilimshiq pardasi bor, 7-xromataplazmasi bor, 8- yadrosiz, 9-iste'mol qilinadi, 10-gazli vakuo mavjud	Tugunak bakterya  nostok  Osillatoriya		



4.Berilgan hujayralar nomlarini yozing



6.Rasmda berilgan organoidga xos bo'lgan javoblarni beldilang.



1-faqat eukariotlarda uchraydi, 2-oqsil sintez qiladi, 3-moddalarni parchalaydi,  
4-ikki qavat membradan iborat, 5-bir memranali, 6-uglevodni sintez qiladi,  
7-ATF sintez qiladi, 8-membranalı tizmdan iborat, 9-tarkibida fermentlar  
ko'p, 10-Golji majmuasidan hosil bo'ladi, 11-kristalari mavjud

3-bosqich tugagach yagona loyiha yaratiladi.

Yaratilgan loyiha asosida quyidagi natijalarni olish mumkin:

1. O'quvchilarning mакtabda olgan bilimlar bazasi qay darajada ekanligini, ularning mustaqil izlanishlari, nimalarga qiziqishlarini bilish mumkin.
2. O'quvchilar guruh bo'lib ishlaganda o'zaro hamkorlik, bir-birini tinglash va shu bilan birga sog'lom raqobat yuzaga kelib, erkin fikr bildirishga o'rganadilar.
3. Bayon etilgan yangi mavzudan o'quvchilar nimalarni o'rgandilar va nimani tushunmadilar (Darsda qanday tushunchalar bayon etilmasdan qolib ketdi)? Bu savolga ham loyiha asosida javob topish mumkin.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Akbar Bahromov, Mohidil Yo'ldosheva. Biologiya 8-sinf.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Davlat ilmiy nashriyoti.T2010.
2. Eshonqulov O.E., Nishonboyev K.N., Hujayra va rivojlanish biologiyasi. T.: "Sharq" nashriyoti. 2011
3. Sadriddinov N., Rahimov A., A.Mamataliyev, Z.Jamolova. Biologiya o'qitish uslubi asoslari. T.: O'zbekiston-2005.
4. A. Yusupov. Biologiya:qiziqarli savol javoblar. T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1997.



**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILIM FAOLIYATINI  
TASHKIL E'TISH VA BOSHQARISH YO'LLARI**

**Eshonqulov Abdulqosim Bahriiddin o'g'li**  
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif  
yo'nalishi 3- kurs talabasi.  
normurodov.oibek@mail.ru

**To'xtamisheva Dinora G'anisherovna**  
TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif  
yo'nalishi 3- kurs talabasi.  
normurodov.oibek@mail.ru

**To'rayev Sunnatali Shokir o'g'li**  
Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali  
Agrologistika va biznes fakulteti  
Bugalteriya hisobi va audit yo'nalishi 2 - kurs talabasi.  
normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada biologiyani fanini o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun dars jarayonida o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lif texnologiyalari, modulli ta'lif texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi.

Ta'lif jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lif mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatları, hodisa va voqealaming mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganiladi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'lifi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lif jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Ta'lif mazmunining tarkibiy qismlari va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnida samarali foydalanishni talab etadi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi. O'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi biologiyani o'qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy meyorlarga mos xulqning paydo bo'lishi tushuniladi. Mazkur tipdag'i faollik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o'qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi. Biologiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday



texnologiya o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lism samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g'oyani egallaydi: 1. Didaktik o'yin texnologiyalari. 2. Muammoli ta'lism texnologiyalari. 3. Modulli ta'lism texnologiyalari. 4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. 5. Loyihalash texnologiyasi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lism samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos www.ziyouz.com kutubxonasi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birlgilikda, ta'lism jarayonida ta'lism beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalamni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanishmaqsadgemuvofig. Biologiyano'o'qitishdalokaldarajadagipedagogiktexnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o'qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingen bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlamining tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ulami hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'lism-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi, dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlati tashkil etilishini aniqlashi, www.ziyouz.com kutubxonasi o'quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi; muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Shuni alovida takidlash kerakki dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilami Insert yordamida ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar har bir jumlanı o'rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki** - biologiyani o'qitishda didaktik o'yin texnologiyasiga mansub konferensiya, matbuot konferensiyasi, ijodiy o'yin, ishbilamonlar o'yini, o'yin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining barcha metodlari, modulli, muammoli ta'lism va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda o'z o'rnida foydalanish maqsadga muvofiq.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002. 14.
2. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007. 15.
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» 2004.



## ORGANIZATION OF COMPETENCE-BASED APPROACH AT THE UNIVERSITIES BASED ON MECHANICAL ENGINEERING AND TECHNOLOGY

**Abduvoitov Ravshanbek Alijonovich,**

Scientific supervisor,

Assistant of the department

"Uzbek language and literature"

Andijan Machine Building Institute

**Vasieva Muslimahon Khairullo qizi**

Student of Andijan Machine Building Institute,

1<sup>st</sup> year student of group 73-21,

"Metrology, standardization and

product quality management"

Faculty of Automotive Engineering

**Abstract:** the article deals with the issues based on organization of competence-based approach in universities based on mechanical engineering and technology. As we know, the use of pedagogical technologies in the educational process makes it possible to organize in practice competence-based learning, which can be based on such elements as a variety of personality development options, the right to develop a personal attitude towards the student, the right to design one's own activities.

**Key words:** competence-based approach, pedagogical technologies, innovative assessment tools.

New educational standards presuppose a competence-oriented approach, which means project-based teaching methods, approbation of various forms of work, which are based on the independence and responsibility for the learning outcomes of the students themselves.

The competence-based approach is systemic and interdisciplinary, it contains both personal and activity aspects. Based on the competence-based approach, the student is developing key competencies, which are an integral part of his activities as a future specialist, and one of the main indicators of his professionalism, as well as a necessary condition for improving the quality of professional education.

The introduction of a new model of results-oriented education requires improving not only the management system, methodological work, but also approaches to the design of classes, their content, the development and implementation of competency-oriented tasks. At the same time, an important role is assigned to control and measuring materials, which involve monitoring the results of not only the knowledge level, but also the competence level. Competence-oriented tasks should have a practical orientation, social and personal significance, and correspond to the level of education. Competence-oriented tasks allow one to imagine how the acquired knowledge and skills can be applied in practice, in a new situation.

At the present stage of development of higher education, there is a change in approaches to determining its content, which are based on the idea of the student's personality development. The integration of Russian education into the European system of higher education exacerbates the problem of training specialists. During their studies at a technical university, students develop a mentality that characterizes the professional orientation of an individual. For the training of engineers, the traditional understanding of higher professional education as the assimilation of a certain amount of knowledge based on the teaching of fixed subjects is generally recognized, but insufficient. A future process engineer should develop productive thinking with a focus on novelty, search, and formulation of problems related to personal qualities.

An analysis of the existing practice of engineering education showed that at the moment there remains a fact of insufficient knowledge, insufficient development of methodology, theory, technology, methodology, management of inter-scientific integrative processes, although the trend towards inter-scientific integration in the system of training engineering personnel is becoming dominant. The pedagogical system of engineering education in the context of the implementation of the competence-based approach is focused on creating conditions for the implementation of the process of purposeful, systematic and organized professional formation and personal development through the development of professional competencies in engineering specialties and specializations; to improve engineering education and engineering activities in all their manifestations related to



educational, scientific and technological areas, including the processes of teaching, consulting, research, development of engineering solutions, technology transfer, provision of a wide range of educational services, provision of public relations, production, science and integration into the international scientific and educational space.

The didactic analysis of modern technologies in engineering education from the standpoint of the competence-based approach made it possible to reveal that the design issues of the pedagogical system of engineering education lie in the plane of new generation didactic systems. This is due to the fact that it is necessary, within the framework of professional education, to prepare an engineer capable of creating an innovative product. The pedagogical system of training such an engineer who meets the requirements of the modern standards is a complex pedagogical problem. For the formation of the engineer of the future, new generation didactic systems are needed, which make it possible to form a specialist at a higher quality level.

The technologization of the competence-oriented educational process presupposes a special design of the educational text, didactic material, methodological recommendations for its use, types of educational dialogue, forms of control over the student's personal development in the course of mastering knowledge. Only in the presence of didactic support, which implements the principle of the subjectivity of education, can we talk about the construction of a competence-oriented process.

The innovative assessment tools include test tasks of four levels of complexity, action tests, situational tests, task cases, project protection, portfolio.

**References:**

1. Belyak EL Experience of organizing personality-oriented teaching of chemistry // Chemistry: teaching methods. 2002
2. Loseva NI Problems of the formation of meta-competencies of students in technical universities // Modern trends in science and education. M: 2014



## STRESS VA TUSHKUNLIK DAN XALOS BO'LISH

Baqoyeva Zarina Rayimovna

zbakaeva69@mail.com

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

pedagogika universiteti,

Psixologiya kafedrasi assistenti.

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada, hozirgi kunda ko'plab insonlarning hayotiga salbiy tasir ko'rsatayotgan stress va tushkunlik holatlari, unga olib keluvchi sabablar, u qanday oqibatlarga olib kelishi va mana shu stress va tushkunlikdan halos bo'lish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** stress, tushkunlik, G. Selyening qarashlari, kartizol garmoni, tabassumning kuchi, endorfin garmoni, kun tartibi, hayot zavqi.

**Kirish:** Keyingi paytlarda stress va tushkunlikka tushish kabi so'zlar va unga chalingan odamlar soni ko'payib bormoqda. Bu holat ba'zida hayotdan bezish, qiziqishning yo'qolishi, oilaviy nizo va ajrimlar va eng xavfisi suitsid holatlariga ham olib kelmoqda. Ko'pchilik insonlar stress va tushkunlikka tushib qolib, undan xalos bo'lishga juda ham qynalishadi. Chunki stress - hayotda yashovchi deyarli har bir insonga hamrohlilik qiluvchi yo'ldoshdir. Doimo tushkun kayfiyat nafaqat sizning barcha hayotiy ko'rsatkichlaringizni pasaytiradi, u tom manoda tanangizni tiriklayin yondiradi. Ko'plab insonlar bunday holatga ko'nika boshlaydi va bundan kelib chiqadigan muammolarni ayniqsa erkaklar spirtli ichimliklar bilan unutishga harakat qilishadi. Lekin bu masalaga to'g'ri yechim emas. Yaxshi kayfiyatda, tabassumda yurgan inson o'z kayfiyatini yonidagi odamlarga yuqtirganidek, yomon va tushkun kayfiyatli insonlar ham yaqin atrofdagi yaqinlariga, oila a'zolariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi va ularni ham shu holatga olib kelishi mumkin. Oldingidek hayotingiz o'z iziga tushishi va meyoriga kelish uchun eng to'g'ri yechim stress va tushkunlikdan halos bo'lish va uni bartaraf etishdir.

Asosoy qism: Insonlarning doimo yaxshi kayfiyatda yurishi, go'zal hayot kechirishlarining siri bu undagi energiya manbayining yetarlicha ekanligidir. Energiya manbayining kamayib ketishi insonlarda stress va tushkunlik holatlarga olib keladi.

Stress - odam va hayvonlarda kuchli ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, haddan tashqari zo'r iqish, asabiylik holatidir. Organizmda har xil ta'sirotlarga nisbatan rivojlangan nomaxsus neyrogarmonal reaksiya. Bu tushunchani birinchi bo'lib G. Selye fanga kiritgan bo'lib, u stressni organizmga zarar olib kelishi bilan birgalikda foydali jihatlari ham bor, bu holat organizm imkoniyatlarini ishga solib, salbiy ta'sirotlarga chidamliligini oshiradi degan edi. Stressning ko'payib ketishi tananing zaiflashishiga, kuchsizlanishiga, muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qolib qolishiga olib keladi. Tushkunlikka tushib qolgan insonlarning hayotidan quvонch yo'qoladi, umidsizlikka tushadi, boshi berk ko'chaga kirib qolib, undan chiqolmay qoladi. Hayot unga endi oq va qora ko'rindi, muammolar yechimsizdek tuyila boshlaydi. Yana ularning qon tarkibida xavotir garmoni- kartizol garmoni paydo bo'ladi va qoni qo'yila boshlaydi. Buning oqibatida insonlarning ichki ruhiyatida, fiziologik holatlarda o'zgarishlar bo'ladi : bosh og'riydi, tushkunlikka tushib qoladi, kelajakka ishonchszilik, hayotni salbiy taraflardan ko'rishni boshlaydi va yana uyqusizlik kabi salbiy, inson hayoti uchun xavfli holatlar yuzaga keladi. Ba'zi insonlar vaziyatdan chiqish uchun hech qanday harakatga qo'l urmidi va natijada hayoti izidan chiqib yomonlashib boradi. Ba'zi insonlar muammolarga yechim qidirib, psixologlarga murojaat qilib bo'lsayam o'z hayotini yo'lga qo'yib oladilar va baxtli kunlarni qarshilaydilar. Keling stress va tushkunlikdan xalos bo'lish yechimlarini qidirib ko'ramiz. Stress va tushkunlikdan chiqish uchun inson o'zini majburlab bo'lsayam 3 daqiqalik tabassum qilishlari lozim. Tabassum qilgan, kulgan inson organizmidan endorfin ya'ni baxt garmonini ishlab chiqaradi. Bu garmon qonni suyultiradi, hayollariga yaxshi narsalarni keltiradi. Aytishlaricha 3 daqiqalik sun'iy tabassum, tabiiy tabassumga aylanar ekan. Bu tabassum sehrli kuchga ega bo'lib, uning natijasida insonlarning vujudidagi og'riq qoladi, qo'yilib qolgan qonni suyultiradi, to'qimalarni ham tiklaydi, shamollashlarni oldini oladi yana insonlarni yoshartirish xususiyatiga ham ega ekan. Stress va tushkunlikni bartaraf etish uchun quyidagi holatlar ham muhim ahamiyatga ega: - insonlarning ichida sirtiga chiqara olmagan alamlari bo'ladi, alamlarni hadeb ichga yutmasdan uni sirtga chiqarish kerak; har bir insonda o'ziga yarasha kamchilik va xatolari bo'ladi, uni tan olib, boricha qabul qilib sevishi kerak shundagina u



o'zidan qoniqadi va kayfiyati h yaxshi bo'ladi.

- Ba'zi insonlar kasb tanlashda xatolikka yo'l qo'yadi, o'sha kasb bo'yicha ishslash oqibatida unda zo'riqish, charchash, asabiylik holatlari yuzaga keladi, shuning uchun kasb tanlashda adashmaslik, o'zi qiziqadigan kasbida faoliyat yuritishlari lozim.

- Eng muhim masalalardan biri bu kun tartibini belgilash va unga rioya qilish hisoblanadi. Chunki insonlarning kunlarini rejalahtirmasligi oqibatida unda bir kunga kuchning ko'p sarflanishi , keyingi kunga umuman sarflanmasligiga olib keladi. Kuchni to'g'ri taqsimlay olish ham stressdan xalos etar ekan.Yana bir holat: siz biror bir yutuqqa erishdingizmi, undan chin dildan xursand bo'ling va o'zingizdan faxrlana oling.

- Stressga tushgan vaqtinig aslo yolg'iz qolmang, chunki bu sizni battar ahvolga solib qo'yishi mumkin. Bu vaqtлari oila a'zolaringiz, do'stlaringiz va yaqinlaringiz davrasida bo'lisch ancha foydali hisoblanadi.

- O'tgan ko'ngilsiz voqealarni eslab, asabingizni buzmang. Chunki o'tgan ish o'tib ketdi, bu asabingizni buzishga arzimaydi. Faqat bugungi kun va ertangi rejalar bilan yashang. Stress va tushkunlik holatlari uyqusizlikdan ham kelib chiqadi. Buni oldini olish uchun muntazam mashqlar, issiq vanna qabul qilish, sokin musiqa tinglash, to'g'ri ovqatlanish, chuqur nafas olish ham ancha foydalidir.

Xulosa: Hayotda inson har qanday vaziyatdan chiqib ketsa bo'ladi. Buning uchun unda kuchli xohish bo'lishi lozim. Insonlar shunaqangi tushkunlikka tushib qoladiki, hamma narsadan beziydi, hech narsaga qiziqmay qo'yadi, hatto bazilar qorong'u xonaga ham qamalib olishadi. Hozirgi kunda yosh bolalarda ham stress va tushkunlik holatlari yuzaga kelayapti. Bunga ota-onalar sababchi desak yanglishmagan bo'lamic. Ona xomiladorlik vaqtida stress va tushkunlik holatlarini oldini olmas , ushbu vaziyatlarga doimiy tushar ekan, uning vujudidagi bola ham xuddi shunday holatda dunyoga keladi va asabiy bo'ladi va tushkunlikka tushib qoladi. Shuning uchun bo'lajak onalarimiz farzand ko'rishdan oldin o'zini sog'lom turmush tarziga tayyorlab borishi hamda stresslardan holi bo'lishi muhim sanaladi. Yosh bolalarda stress va zo'riqishning paydo bo'lishi sababi uni aqliy va jismoniy mehnatining bir xilda taqsimlanmaslidan ham paydo bo'ladi. Aqliy mehnat qilgan bola vaqt vaqt bilan dam ham olib turishi kerak. Stressga tushgan vaqt yuqoridaqilarga amal qilsa, sog'lom muhit hayotini shakllantirsa, o'zini iloji boricha tushkunlikdan yiroq tutsa, hamma narsadan faqat zavq olib yashasa - hayoti ham chiroyli bo'ladi, uning tanasi ham jismoniy jihatdan, ham ruhiy tomonidan sog'lom bo'ladi, farzandlarini ham go'zal axloq bilan tarbiyalaydi va oilaviy farovonlikka erishadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya, Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva M.X.Xolnazarova
2. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi M.X.XOLNAZAROVA
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R.A.MAVLONOVA
4. Internet saytlari [www..com](http://www..com)



## EFFICIENCY OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING PROCESS

**Khurulboyev Shukrullo Abdullajonovich,**

Senior teacher of the department "Uzbek language and literature"

Andijan Machine Building Institute

**Esonov Kudratbek,**

Faculty of Mechanical Engineering Technology,

3rd year of management, Andijan Machine Building Institute

**Abstract:** As it's known that, educational technologies in higher education are understood as a system of scientific and engineering knowledge, as well as methods and means that are used to create, collect, transfer, store and process information in the subject area of higher education. In this article we discussed efficiency of using information technologies in teaching process.

**Key words:** educational process, information technologies, management.

Currently, the role of information and social technologies in education is growing, which provide universal computerization of students and teachers at a level that allows solving at least three main tasks:

- providing access to the Internet for each participant in the educational process, and, preferably, at any time and from different places of stay;

- development of a single information space of educational industries and the presence in it at different times and independently of each other of all participants in the educational and creative process;

- creation, development and effective use of managed information educational resources, including personal user databases and data banks and knowledge banks of students and teachers with the possibility of universal access to work with them.

Based on the prevailing rates of computerization of the continuous education industry, as well as taking into account the uneven technological computer-network support of the population at home, it can be expected that in the very near future these tasks will not be fully and comprehensively solved [1].

At the same time, there is a growing understanding that the traditional scheme of obtaining education in the first half of life is morally outdated and needs to be replaced by continuous education and lifelong learning. New forms of education are characterized by interactivity and cooperation in the learning process. New theories of learning must be developed such as constructivism, student centered education, learning without time and space boundaries. To improve the quality of education, it is also proposed to intensively use new educational technologies [2].

Various approaches to the definition of educational technology can be summarized as a set of ways to implement curricula and curriculum, which is a system of forms, methods and teaching aids that ensure the achievement of educational goals. Specialists usually deduce the difference in educational technologies from the difference in the teaching aids used. Information educational technologies arise with the use of information and computer technology. The educational environment in which educational information technologies are implemented is determined by the components working with it:

- technical (type of used computer equipment and communication facilities);

- software and hardware (software tools to support the implemented learning technology);

- organizational and methodological (instructions for students and teachers, organization of the educational process).

Educational technologies in higher education are understood as a system of scientific and engineering knowledge, as well as methods and means that are used to create, collect, transfer, store and process information in the subject area of higher education. A direct relationship is formed between the effectiveness of the implementation of educational programs and the degree of integration of the relevant information and communication technologies into them.

The overriding task of understanding and implementing the problem of informatization of higher education is that as a result, a global rationalization of intellectual activity in society should be achieved through the use of new IT in order to increase the efficiency and quality of



training specialists to the level of information culture achieved in developed countries. Training of personnel with a new type of thinking should be provided, corresponding to the requirements of a post-industrial society [2].

This aspect of educational practice is commented on as follows. According to the associate professor of the Institute of Management in the Machine-Building Industry A. V. Fel, the use of the information system in the learning process "allows not only to give students information about the object of management, but also helps them to understand all the diversity and complexity of relationships typical of real enterprises, to trace the dynamics of these connections when external and internal factors change, as well as to destroy the interdisciplinary barriers formed among students, due to the temporal sequence of the presentation of academic subjects. Such a toolkit makes it possible to build modern educational technologies that provide for the formation of extraordinary thinking in students, a creative approach to management. Ultimately, their activity becomes not a set of standard techniques, but is based on an understanding of the cause-and-effect relationships of phenomena and processes, which significantly increases its motivation and effectiveness" [2].

Thus, one of the educational technologies, in our opinion, is the use of information technologies. Information technology in the learning process is defined by many researchers as a technological revolution in education. It becomes possible to transfer information materials to the student through his direct contact with the studied objects and phenomena, to design educational situations in which the student will need to make some decisions and take certain actions.

**References:**

1. Dzhuraev R.Kh., Tsoi M.N. The introduction of interactive resources into the practice of school education. - Tashkent, 2012.
2. Deykina A.Yu. Cognitive interest: essence and problems of study. - Biysk, 2002.



## APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE PROFESSIONAL COMPETENCE

**Mamajonov A.V.,**

Assistant of the department "Uzbek language and literature",  
Andijan Machine Building Institute

**Valiev Durbek**

Faculty of Automation and Control of Technological  
Processes and Production (by industry),  
Mechatronics and Robotics, 3<sup>rd</sup> year student  
Andijan Machine Building Institute

**Abstract:** Today, one of the characteristic features of the educational environment is the ability of students and teachers to refer to structured teaching materials through ICT at anytime and anywhere in space. In addition to the availability of educational material, it is necessary to provide the trainee with the opportunity to communicate with the teacher, receive advice on-line or off-line, as well as the opportunity to receive individual "navigation" in the development of a particular subject. The article describes issues based on efficiency of application of innovative technologies in formation of foreign language professional competence of students.

**Key words:** innovation, technology, foreign language professional competence.

Information technologies bring the opportunity and the need to change the very model of the educational process: the transition from reproductive learning - the "overflow" of knowledge from one head to another, from the teacher to the students - to the creative model (when a life situation is modeled in the classroom with the help of new technological and technical support or a process, students under the guidance of a teacher should apply their knowledge, show creativity to analyze the simulated situation and work out solutions for the tasks). Experts believe that the development of traditional and new technologies should proceed according to the principle of complementarity and intercorrelation, which, in turn, allows us to talk about a fundamentally new dimension of the educational environment - a global dimension that exists in real time and associates the entire set of educational technologies.

"The Internet is a hyper-technology that includes everyone else, and its success is due to the fact that it can 'give everyone everything' ... However, there is always an area for the application of lower-level technologies such as computer conferences or e-mail ... the time has not come to abandon distance learning courses that are global in nature, but do not use any computer or communication technologies" [2].

Thanks to the Internet, the various facets of globalization (scientific, technological, economic, cultural and educational) have had a very significant impact on both traditional face-to-face educational institutions and the development of a variety of educational innovations such as distance learning and virtual universities. In all these organizations, globalization requires profound and radical changes in the structure, methodology of teaching and research, as well as the training of management and teaching personnel [1].

We consider the technologies for the formation of foreign language professional competence, used at the Tyumen Industrial University, as a system of didactic application of scientific knowledge and scientific approaches to the analysis and organization of the educational process, taking into account the empirical innovations of teachers and a focus on achieving high results in the formation of professional competence and the personality of students. The structural components of such a system are: learning objectives; content of training; means of pedagogical interaction, including motivation; organization of the educational process; student; teacher; the result of the activity (including the level of foreign language professional training). The innovative technologies used in the process of teaching a foreign language have the following features:

- conceptuality (based on a certain scientific concept);
- consistency (they have all the signs of a system: the logic of the process, the interconnectedness of all its parts, an indispensable overall integrity);
- manageability (they have the ability to set diagnostic goals, planning, designing the learning process, step-by-step diagnostics, varying means and methods in order to correct the results);



- efficiency (effective in terms of results and optimal in terms of cost, as well as guaranteeing the achievement of a certain standard of training);
- reproducibility (reproducible in other educational institutions of the same type, by other subjects);
- education (morally justified, contributing to the humanistic and creative development of students).

Research has shown that teaching technologies in educational practice have a different effect on the student's attitude to the subject and the assimilation of knowledge in the course of classes. In this regard, indicators of the effectiveness of technologies for the formation of a foreign language professional competence were developed:

- the ability to take into account with their help the age, intellectual, moral and psychological characteristics of students, motivational potential;
- a positive emotional background of training;
- implementation of the principle of partnership, cooperation, dialogue between teacher and student;
- creating an atmosphere of active co-creation of students, including all the reserves of their memory in the classroom;
- attraction of a wide arsenal of technical, multimedia teaching aids;
- a good final result after the end of classes and, in the future, satisfaction of students with the quality of classes.

In the process of applying innovative technologies, the student's position also changes: his goal is to actively interact with the teacher and his fellow students, use a variety of information sources and resources using computer technologies, and independently search and comprehend the necessary professional information.

#### **References:**

1. Corrall, S. (1998). Key skills for students in higher education. SCONUL Newsletter, 15, 25-29.
2. Akbarova Z. Sh. Application of innovative technologies aimed at training a competitive practice-oriented specialist. 2011



## TERMIZIY ALLOMALAR MEROSI- BOY MANAVIY XAZINAMIZDIR

Normurodov Ergash Chori o'g'li

Surxondaryo viloyati Bandixon tumani

26 - sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining

Ma'naviy ma'rifiy axloq ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari.

normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Iso Termiziy va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirishdir deb yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ilm-ma'rifikat, allomalar, aziz-avliyolar, o'ta tirishqoq, idrokli, aql- zakovat, konferensiya, simpozium, ko'rgazma.

Mamlakatimizda ilm-ma'rifikat tamadduniga katta hissa qo'shgan mutafakkir-allomalarimizning boy ilmiy merosini o'rganish, yurtimiz va jahonda keng targ'ib qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoida. Jumladan, Termiz shahrida Abu Iso Termiziy va termiziy allomalarning hayoti va ma'naviy merosini o'rganish, hayotga keng tadbiq etish, islom dinining asl mohiyatini hamda hadis ilmi tarixi va uning ezgu g'oyalarini targ'ib etish maqsadida Prezidentimizning 2017-yil 14-fevraldag'i "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Qolaversa, ulug' allomaga bo'lgan hurmat, uning shaxsiga bo'lgan faxrimizning yorqin ifodasidir. Mazkur Qarorning asosiya maqsad va vazifalaridan biri – Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirishdir.

Chindan ham, bularning barchasi o'sib kelayotgan kelajak avlod uchun ajdodlar merosini o'rganish, tadqiq etish, xalqimiz hamda keng jamoatchilikka yetkazish uchun ulkan imkoniyat.

Imom Termiziy yoshligidan o'ta tirishqoq, idrokli, aql- zakovatli bo'lganligi bois o'z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o'ta qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgangan. Qo'shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o'rnatilishiga munosib hissa qo'shgan yetuk olimlardan biridir. Yoshligidan ilmu-fanga tashna Imom Termiziy 850 yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safarlar qiladi. Jumladan, u Hijozda Makka va Madina, Iroq, Xurosning qator shaharlarida ko'plab muhaddis, faqih, va ulamolar bilan uchrashib, muloqotda bo'lib, ulardan ta'lif oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi. Shu bilan bir qatorda Iso Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riliqiga to'liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarning to'g'riliqiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahiyh (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi turlarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imom Termiziy o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. O'sha davrning yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Alloma zehnining o'tkirligi hamda quvvai-hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misol va rivoyatlar keltiriladi. Muhaddis bobokalonimiz Imom Iso Termiziy zamонидаги олимлар унинг hadis ilmidagi xizmatlarini yuqori baholagan. Ulardan biri Imom Termiziyni "Hadis ilmida iqtido qilinadigan yagona olim" deb yozsa, boshqa biri esa uni "Birinchilardan bo'lib hadislarni sahih, hasan, zaifga taqsim qilganiga guvohlik beradi". Ayniqsa,



muhaddis olimning asarlaridagi ravonlik faqat ziyoli kishilar uchun emas, balki har bir inson tushunishi mumkin bo‘lishiga sabab ekanini alohida ta’kidlash joiz. Dunyo ulamolari buyuk ilm sohibi bo‘lgan hamda yuksak e’tirofga munosib ko‘rilgan bobokalonimizning ibratlilayot yo‘llari va boy ma’naviy merosini har tomonlrama o‘rganish biz yoshlar uchun ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. “Ustoz – shogird” an’anasini davom ettirish maqsadida taniqli olim, manbashunos, mohir tarjimon, tarix fanlari doktori professor Ubaydulla Uvatov nomini abadiylashtirish yo‘nalishida onlayn anjuman tashkil qilinib, uning nomi Markazdagi manbashunoslik xonasiga berildi.

Imom Termiziylari va termiziylar boy merosini o‘rganish hamda keng targ‘ib etish maqsadida xorijiy ilmiy markazlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, konferensiya, simpozium, ko‘rgazma, ilmiy ma’ruzalar, seminar-treninglar, tanlovlari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish Markazning asosiy vazifalari etib belgilangan.

**Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki**, shunday yetuk muhaddislarning avlodni bo‘lish har birimizning zimmamizga ulkan mas’uliyatni yuklar ekan, jamiyatimizning har bir a’zosi, ayniqsa yoshlarimiz ularga munosib avlod, ilm-ma’rifat nurini taratguvchi mayoq bo‘lishlari ham qarz, ham farzdir.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Buyuk muhaddislar (Imom al Buxoriy, Imom Muslim, Imom at Termiziy), T., 1998;
2. Buyuk allomalarimiz, T., 2002;
3. Uvatov U., Ubaydulla Uvatov. Donolardan saboklar, T., 1994.



**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARНИ  
SHAKILLANTIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Ziyodov Odilbek Toshbolta o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif yo'nalishi 3- kurs talabasi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Qurbanov Shahrizod Shavkat o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif yo'nalishi 3- kurs talabasi.

normurodov.oibek@mail.ru

**G'aniyev Abbas Abror o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta'lif yo'nalishi 3- kurs talabasi.

normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya o'quv dasturda belgilangan tayanch kompetensiyalarni biologiya darslarida shakllantirishdagi o'qituvchi va o'quvchi bilan bo'g'liq muammolar va ularni yechimiga oid tavsiyalar berilgan.

**Kalitso'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompenetsiya, kammunikativ kompetensiya, axborot bilan ishslash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

O'quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Ta'lif-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondoshuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lif mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi. O'quvchi shaxsining umumiyligi rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o'quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi - biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'lay olish qobiliyatidir.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Quyida biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish imkoniyatlari yuzasidan fikr yuritiladi. Biologiya o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyanı tarkib toptirishni nazarda tutgan holda biologiya darslarida o'quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladi. Og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me'yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishslash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o'quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda biologik kechalar va tanlovlardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda axborot bilan ishslash kompetensiyasini tarkib toptirish



maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanishi, qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallарини таъyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlар, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'rniда foydalanishi zarur.

Biologik ta'lif-tarbiya jarayonida innovations texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda biologiya darslari, darsdan tashqari ishlар, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rinn tutadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur.

O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlар, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlар muhim o'rinn tutadi. Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab etadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltirish o'rinni bo'ladi: «Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi». Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari ta'lif sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi. AKTni ta'lif jarayoniga joriy etish o'qituvchilardan bir qator ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid xujjalarni tayerlashda matn muxarriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma'lumotlarni izlash va muloqot qilish. Ushbu vazifalarni bajarishda o'qituvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'z ichiga juda ham ko'plab ko'nikmalarni oladi. Shular ichidan o'qituvchilar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlikning eng kerakli va zarur bo'lgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

Biologiya darslarida gul formulasi asosida gulning tuzilishini izohlash, modelini sharhlash, gul diagrammasini chizish, iqtisodiy foya keltiradigan biologik masalalardan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqorida qayd etilgan fikrlar biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish barobarida ularda umumiyligi (predmetli) kompetensiyalarni tarkib toptirishga ham e'tibor qaratishi lozim. Mazkur jarayonda biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o'quv fanlardan zamin tayyorlaydigan fanlararo o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalgalashiga bog'lanishlarni amalgalashiga oshirish orqali tarkib umumiyligi kompetensiyalarni tarkib toptirishni loyiqliishi lozim.

**Shu o'rinda qayd etish lozimki,** biologiya o'qituvchisi o'rganiladigan mavzuning mazmunini tahlil qilishi, ta'lif-tarbiya jarayonida fanlararo bog'lanishni amalgalashiga oshirish yo'llarini belgilashi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiya darslari. (O'qituvchi kitobi) O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent-2016 y.
2. Mutalipova M., Imomov M. Ta'lilda ilg'or xorijiy tajribalar modullari bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017



## БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАЊНАВИЙ- АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ

Махбуба Шерматова

Тошкент шаҳар, Учтепа тумани,  
283-мактаб ўқитувчи

**Аннотация:** мақолада бошлангич синф ўқувчиларини мањнавий- ахлоқий тарбиялашда оила ва мактаб ҳамкорлиги, ҳамда уни самарали ташкил этиш масалалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** мактаб, шахс, феъл-атвор, оила, маҳалла.

Ёш авлодни ҳар томонлама мукаммал шахс қилиб тарбиялашдек масъулиятли вазифа ота-она елкасида. Инсон шахсини шакллантириш оиладан бошланади; хусусан болада ирода, одатлар, феъл-атвортага муносабат, эътиқод ва қарашлар вужудга келади. Ана шулардан келиб чиқсан ҳолда турмушда инсонни камол топтириш шароитлари, таъсир кўрсатиш имкониятларини изчил ўрганмай туриб, шахснинг хусусиятлари ва уларни келтириб чиқарувчи омиллар тўғрисида фикр юритиш мумкин эмас.

Мустақиллик йилларида барча соҳаларда бўлгани каби таълим-тарбия ва оила тарбиясини ташкил этишда ҳам муҳим ўзгаришлар юз берди. Мавжуд шароитда оиласа болаларнинг мањнавий-ахлоқий тарбиялашда маҳалла ва оила ҳамкорлигига ота-оналар ва мактаб ҳамкорлиги тарбиясини ташкил этишда муайян қийинчиликлар кўзга ташланмоқда. Оила шароитида уюштирилаётган сұхбатлар алоҳида диққатга сазовордир. Оммавий ахборот воситалари орқали аҳоли эътиборига ҳавола этилаётган маҳалла болаларни мањнавий-ахлоқий ҳуқуқий мавзулардаги мақолалар, кўрсатув, эшиттириш, шунингдек, оммавий-ҳуқуқий адабиётлар ҳамда уларда илгари сурилган ғоялар юзасидан ўтказиладиган сұхбатлар маҳалла болаларни мањнавий-ахлоқий, ҳуқуқий тасаввур, идрок, саводхонлик, тафаккур, фаоллик, масъуллик, эътиқод ва салоҳиятни қарор топишига олиб келади. Маҳалла болаларни мањнавий-ахлоқий тарбиялашда педагогика фани олдига миллий ва худудий хусусиятларни инобатга олган ҳолда тарихан таркиб топган оила – таълим муассасаси – жамоатчилик тарзида учликнинг мањнавий-ахлоқий роли улар ўртасидаги ўзаро бирлик, алоқадорлигини асослаш, болаларда идрок ва тафаккурни шакллантиришда оила ва маҳалла ҳамкорлигик имкониятларини аниқлаш ҳамда улардан унумли фойдаланиш талаби ўртага қўйилмоқда. Маҳалланинг ўкув йили давомида ота-оналар билан олиб борадиган ишлари: маҳаллада ота-оналар мажлиси. Ота-оналарнинг умумий йиғилишида ўкув йили давомида болалар, ота-оналар билан олиб бориладиган тарбиявий ишларнинг бориши ва якуни мухокама қилинади. Ота-оналар маҳалла ҳаёти ва болаларнинг интизоми, хулқатвори, ижтимоий меъёрларга амал қилишлари, болаларни мањнавий жиҳатдан тарбиялаш борасида эришаётган натижалар билан таниширилади. Ўкув йили якунида бўлиб ўтган маҳаллада ота-оналар мажлисида ижтимоий ҳаётда фаол иштирок этган, турли фанлар бўйича уюштирилган тадбирларда алоҳида ибрат кўрсатган, шунингдек, муайян фанлар бўйича олимпиадаларда муваффақиятли қатнашган болалар ва уларнинг ота-оналарини раҳматномалар билан тақдирлаш мақсадга мувофиқдир.

Ижтимоий-мањнавий мазмундаги сұхбат ва маърузалар ота-оналарда ижтимоий, таълим-тарбияга оид билимларни эгаллаш, фарзанд тарбияси ишига жиддий эътибор бериш, бу борада таълим муассасаси билан мустаҳкам ҳамкорлик ўрнатишда муҳим аҳамиятга эга. Оиланинг фарзандлар ўкув фаолиятига ғамхўрлик қилиши тарбиядаги бош масалалардан биридир. Ота-оналар фарзандларининг таълим жараёнида билимларни муваффақиятли ўзлаштиришлари йўлида масъулиятни чуқур ҳис этишлари зарур.

*Ота-оналарнинг бу борада қўйидағиларга риоя этишлари мақсадга мувофиқдир:* болаларнинг машғулотларга кечикишлари ва уйга ўз вактида қайтмасликларига йўл қўймасликлари; уларнинг дарс тайёрлашлари учун уйда қулай шароитни яратиб беришлари; болаларда уй вазифаларини бажаришга нисбатан масъулиятли ёндашувни қарор топтиришлари; болаларга ўкув топшириқларини бажариш ҳаётий зарурият эканлигини ўқтиришлари, вазифаларни мустақил, вижданан бажариш кўнікмаларига эга бўлишларига кўмаклашишлари; болаларнинг кун тартибига амал қилиш кўнікмаларига эга бўлишларига эътибор қаратишлари; бўш вактдан унумли фойдаланишларини назорат қилиб боришлари.



Болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбиялашда маҳалла, оила ва мактаб ҳамкорлигининг аҳамияти шундаки, Ватан туйғуси ҳар кишини қонига, она алласига, болалиқда эшигтан шеър қўшиқлари билан киради. Ватанпарварлик туйғуси гўдакликдан бошлаб шаклланса у сўнгги нафасигача бокий бўлади. Шунинг учун бу туйғуларни миллий қадриятларимиз, урғодатларимиз, анъаналаримиз ёрдамида шакллантириш катта самара беради. Тажрибадан маълумки, болалар маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий мусика қўшиқлар муҳим рол ўйнади. Чунки барчага аёнки, мусика – тарбия маънавиятдир. Ҳар бир миллатнинг мусиқаси маълум даражада унинг хаёти ва турмуш тарзини дақрни акс эттиради. Анъаналаримизни болаларга сингдириш орқали уларда маънавий-ахлоқий сифатлар шакллантириш билан бир қаторда миллий қадриятларимиз чукур англашга, хурмат қилишга ва энг муҳими ана шу қадриятлардан ўзларини мустақил хаёт фаолиятида қўллай олиш масалалари билан мустахкамлаб оладилар. Болалар, тарбиячилар, оқъитувчилар ўргазмали стендлар, маънавий-ахлоқий тарбияга тегишли адабиётлардан иборат бурчаклар ташкил этилиши мақсадга мувофиқидир.

**Адабиётлар:**

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари: Ўқув-методик қўлланма. – Т., 2015. 208 б.
2. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар // Таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар. – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.



**ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРНИ ҚАЙТА  
ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ.**

**Иродда Салимова**  
ЎзДЖТУ ўқитувчи  
Телефон: +998909997504  
irodasalimova@inbox.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада замонавий ахборот асрида коммуникацион технологияларнинг ўрни педагог кадрлар фаолиятида қай даражада муҳим аҳамиятга эга эканлиги ва уларнинг малакасини оширишда муҳим восита бўлиб хизмат қилиши ҳақида ёндашган.

**Калит сўзлар:** коммуникация, технология, кадр, замонавий ахборот, таълим, ахборотлаштириш, электрон доска, меёрий ҳужжатлар.

XX асрнинг 90-йилларидан бошлаб ахборотлаштириш соҳаси кескин ривожланиб кетди. Бизнинг асримиз, яъни XXI асрни ахборотлаштириш ва коммуникация аси деб бежиз аташмайди. Ахборотлаштириш нима ва унинг вазифаларига нималар киради, унинг асосий хусусиятлари қандай, деган саволлар ҳозирги замон жамиятидаги ҳар бир фуқарони қизиқтириши табиий. Чунки инсон фаолиятини ахборотсиз тасаввур қилиш қийин.

Ватанимизнинг ёруғ келажагини белгилайдиган, жаҳон микёсида унинг куч-кудратини таъминлайдиган, илмий-техник тараққиёт ютуқларини, биринчи навбатда акс эттирадиган соҳалардан бири, таълим соҳаси бўлганлиги сабабли, мамлакатимизда мустақилликнинг ilk йиллариданоқ таълим тизимини ислоҳ қилиш масаласи давлат сиёсати даражасига чиқди. Шунингдек, таълимни ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш кўп жиҳатдан педагог кадрларга боғлиқ бўлганлиги сабабли, уларни замон талаби даражасида ахборот коммуникация технологиялари бўйича малакасини ошириш йўллари изланиб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг "Педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида" ги 2006 йил 16 февралдаги 25-сонли Қарорининг қабул қилиниши юқорида келтирилган фикримизнинг исботидир.

Доно ҳалқимизнинг "Тилни билсанг олам сеники" сингари мақоллари борки, ҳозирги замонга айнан атаб айтилган. Афсуски бир неча тилларни билишнинг ўзи биз яшаб турган асримизга етарли эмас. Яъни шунга қўшимча қилиб замонавий ахборот коммуникацион технологияларини билиш талаб қилинади.

Кадрларнинг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимида замонавий ахборот коммуникацион технологиялари сув ва ҳаводек зарур, чунки бу давр талаби.

Тажрибадан маълумки тингловчи ўзлаштирилаётган ахборотни эшитиб уни визуал тасаввур қиласа (яъни бу ерда одатда доскалардан фойдаланилади) хотирасида кўпроқ сакланиб қолади. Фақатгина доскалардан эмас балки проекторлар ёки электрон доскалардан фойдаланилса таълим сифатини барча тингловчилар шунингдек малакасини ошираётган кадрларда жуда катта сезиларли сифатни оширади.

Педагог кадрларнинг замонавий ахборот коммуникацион технологияларини билиши қўйидаги натижаларни эришишга ёрдам беради:

- дарс ўтаётган фанининг меёрий ҳужжатларини, ишчи дастур ва технологик хариталарни тузиш, ўзи мустақил тарзда тайёрлаши;
- янги мавзуга тайёргарлик қўришда глобал тармоққа чиқиш ҳамда мавзуга доир замонавий янгиликларни қидириб топиши;
- янги дарсга тайёргарлик қўриш давомида яратилган дарс ишланмалари ҳамда янгиликларни умумлаштириш, шунингдек дарснинг мавзу бўйича динамик қўринишида акс этувчи жараёнларнинг анимацияларини яъни электрон тақдимотини яратишга ёрдам беради.



Ахборот коммуникацион технологиялари воситалари асосида дарс жараёнини ташкил қилиш педагог-ўқитувчиларнинг иш фаолиятини осонлаштириб, ўқув жараёнини бошқариш, унинг самарадорлигини янада кўтаришга эришилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 295-296.
2. Бегимқулов У.Ш. Замонавий ахборот технологиялар P1 муҳитида педагогик таълимни ташкил этиш // «Педагогик таълим» жур, № 1, 2004 - 25-25 бетлар.
3. Тайлақов Н.И. Таълим тизимида замонавий ахборот технологияла- рини жорий этишнинг истиқболлари //Таълим ва тарбия. -Т.: - 2002. -№1-2. -27-30 б.



**SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING  
KREATIV FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI.**

**Raxmatova Hamida Ismatillo qizi**

Termiz davlat universiteti  
Pedagogika fakulteti talabasi  
+998 99 134 70 02  
hamidaraxmatova@gmail.com

*Ulug` allomalarimiz, o`zlarining olamshumul kashfiyot va ixtiolarini sizning yoshingizda-  
ayni kuchga to`lgan navqiron chog`larida amalga oshirganlar. Siz ham buyuk ajdoddlardan ibrat  
olib, hayotda mo`jizalar yaratishga astoyidil intilishingiz kerak.*

*Sh.Mirziyoyev*

O`zbekiston Respublikasining sohasini isloh qilishdagi sa`y harakatlarning biri bu- o`sib kelayotgan yosh avlodni zamон talablariga hamnafas tarzda, jahon hamjamiyatida yuqori natijalarga erishadigan, chuqur bilim, ko`nikmaga ega raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashdir. Bu esa o`z-o`zidan ta`lim va tarbiya ishlaring qonumiylarini o`rganuvchi pedagogika faniga “Kreativlik” tushunchasini olib kirdi. Ayniqsa ta`limning bugungi kundagi rivojlanish jamiyatni va davlatni rivijlantirishga ta`siri ushbu masalani ilmiy-pedagogik nuqtasi nazardan chuqur o`rgatishni talab qilmoqda. Bugungi jadal rivojlanayotgan globallashuv va axborotlashuv davrida ta`limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tadbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta`limda, birinchi navbatda, ijodiy qobilyatlar o`z-o`zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim tushunchalardan hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ijodiy mahoratini va kreativ fikrlashini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan to`g`ri va o`rinli foydalanish o`ta muhimdir.

Kreativ fikrlash insonga XXI asr jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun kerakli bo`lgan kompetensiyalardan biridir. “XXI asr ko`nikmalar” yoki ”XXI asr kompetensiyalari” deb ataladigan bu kompetensiyalar muttasil o`zgarib borayotgan, biz bilgan mavjud ma`lumot hajmi har soniyada bir necha barobarga oshib borayotgan, raqamlashgan jamiyatda moslasha olish va o`z o`rnini topish uchun juda mumkindir. Bu kompetensiyalar kognitiv ko`nikmalarning yuqori darajada rivojlangan bo`lishini, jumladan, mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil va sintez muammolariga yakka tartibda va jamoa bo`lib nostandart yechimlar topa olish qobilyatlarini taqozo qiladi.

Kreativlik (lotincha “creati”-yaratish, inglizcha “creative”-yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobilyati. Uning tag zamirida orginallik, amaliylik, noodatiy va erkinlik yotadi. Shuningdek kreativ fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik o`quvchini rivojlantiruvchi nazariya sifatida inson ongi va tafakkurining ajralmas qismi hisoblanadi, u bola ega bo`lgan bilimlarning ko`pqirrali ekanligida emas, ba`lki g`oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy qarorlar chiqarishda nomoyon bo`ladi. Bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo`lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g`oyning paydo bo`lshi asosiy shartdir. Kreativlik jarayonida bolalardan tasavvur qilish, yangi g`oyalar kiritish hamda muammo ustidan mulohaza yuritish talab qilinadi. Bungun kun boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijodkorlik va kreativlikning bo`lishi muhim ahamiyatga ega bo`lib, bu jihat uning ta`lim- tarbiya jarayonida o`quvchilarda ham ushbu sifatni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativ fikrlash qobilyati va ijodkorlik xususiyati uning ta`lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida va faoliyat turlarida nomoyon bo`ladi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko`ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir.

Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilarning kreativ faolligini oshirish uchun darslarda turli muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki har tomonlama fikrlash o`quvchilardan berilgan turli topshiriq va vazifalarni bajarishda ko`plab g`oyalarga tayanishni talab etadi. O`quvchi topshiriqni bajarish, masalani yechishda yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so`ngra ular orasidan eng maqbul yechimga to`xtaladi. Bunday vaqtida o`qituvchilar ham



o`z navbatida kreativ fikrlarni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni yaratishlari va o`zlari ham o`quvchilarga fikrlashda ko`proq ijodiy yondashishga yordam bera olishlari shartdir. O`quvchilarning fikrlash va ijodiy qobilyatlarini shakllantirish uchun darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin.

1. O`quvchilarga ijodiy fikrlashga doir topshiriq berish va natijalarini o`rganish, ularning ijodiy ishlariga baho berish. Bunda o`qituvchilar dars davomida quyidagicha grafik diktantlardan foydalanish mumkin:

2. Dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarda turli qiziqarli didaktik o`yinlar va noan`anaviy usullardan foydalaniib o`quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, sinfdagi barcha o`quvchilarni jalb qilish.

3. “Do`stingni tanla va masalani yech” o`yini.

4. Bu o`yinda barcha o`quvchilarga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda masala berilganlari yozilgan. Lekin nimani topish kerakligi yozilmasdan boshqa kartochkaga yozilgan. Bola qo`slnisini ya`ni, masala shartining davomini topish kerak va masalani ikki kishi bo`lib hamkorlikda ishlab o`qituvchiga topshirishlai lozim.

5. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqarish va o`quvchilarning bildirgan har bir fikrini inobatga olish. Bunday vaziyatlarda O`qituvchiar turli ertak va matnlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan, o`qituvchi dars davomida “Bo`g`irsoq” ertagini o`qib beradi va o`quvchilarning kreativ fikrlashlari uchun quyidagicha savollarni berishi mumkin:

6. Ertakni yana qanday yakunlash mumkin?

7. Bo`g`irsoqning o`rnida bo`lganiningizda tulkiga yem bo`lmaslik uchun nima qilar edingiz?

8. Nima deb o`ylaysiz ertagimiz qahramoni qanday xatolarga yo`l qo`ydi?

Shunday savollarda o`quvchilarning kreativ yondoshuvi yaqqol bilinadi.

9. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Innovatsion texnologiyalar boshlang`ich sinf o`quvchilarida kreativ fikrlashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

10. Rasmlar orqali kreativlikni oshirish. Bunda o`quvchilar ajratilib ko`rsatilgan detallarni rasmdan qidirib topadilar.

Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o`quvchi va yoshlarning o`ziga xos kreativ qobilyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo`sh vaqtini mazmunli, samarali o`tkazishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`z o`quvchilarining kreativ fikrlash qobilyatlarini o`z vaqtida aniqlab, rivojlantirib borishi shartdir. Zero ozod va obobd Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o`quvchi yoshlarning qo`lida ekan, biz bo`lajak pedagoglar buni doimo yodda tutishimiz va kelgusida o`z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. O`Asqarova va boshqalar. 7-bob. “Fan”, 2004-yil
2. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. Toshkent-2006
3. Hamdamova.M, “Yoshlarning intelektual salohiyatini rivojlantirish mexanimizining pedagogik-psixologik asoslari”, Toshkent 2007
4. Xalq ta`limi jurnali. 55-bet. 2018-yil. 3сон



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDA TOVUSH MADANIYATINI TARBIYALASH VOSITALARI

Tursunova Feruzaxon Saydullayevna

Farg'ona viloyati XTXQTMOHM

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif  
metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

tel: 90-301-72-03

e-mail: tursunova\_feruzaxon@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'limgagi bolalar nutqida tovush madaniyatini shakllantirish asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, tovush, talaffuz, nutq madaniyati, tovush madaniyati.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning nutqi yaxshi taraqqiy etishi, hamma tovushlarni yaxshi talaffuz etish uchun ularning nerv sistemasi, eshitish va nutq organlari sog'lom bo'lishi lozim. Agar bola yaxshi eshita olmasa, u tovushlarni bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi, tomoq, burun yo'llari, tishi sog'lom, toza bo'lmasa tovushlarni, so'zlarni aniq talaffuz eta ol-maydi, nerv sistemasi nosog'lom, tez qo'zg'aluvchan bo'lsa, bu ham uning nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham MTMda bolaning nutqini yaxshi rivojlantirish uchun sharoitni yaratish zarur. Guruh xonasida doimo osoyishtalik bo'lishi lozim; qattiq shovqin bo'lishiga, qurilish materiallari o'ynalayotganda ortiqcha taqir-tuqur bo'lishiga, baland ovoz bilan so'zlashilishiga, radioning baland qilib qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bularning hammasi bolaning hali mustahkamlanmagan nerv sistemasiga salbiy ta'sir qiladi, bolani charchatadi, shuningdek, eshitish o'tkirligini susaytiradi: qulqoq sezuvchanligini yo'qotadi. Uzoq vaqt qattiq tovushlarni eshitish natijasida bolalar hatto tarbiyachining baland ovoz bilan aytgan gaplariga ham e'tibor bermaydigan bo'lib qoladilar. Shuni ham aytish kerakki, bolalar o'tirganda mutlaqo jimgitlik bo'lishi ham mumkin emas, albatta, chunki bolalar o'ynaganlarida bir-birlari bilan so'zlashadilar. Lekin tarbiyachi tinchlik saqlash kerakligini ularga tushuntirishi, o'z nutqining muloyimligi, osoyishtaligi bilan ularga namuna bo'lishi va ularni baqirmsandan, ortiqcha tortinmasdan so'zlashishga odatlantirishi lozim.

Agar guruh bolalari o'zaro normal ovoz bilan gaplashayotgan bo'lsalar, ularni yanada osoyishta so'zlashishga majbur etmaslik kerak, chunki ular bunda bir-birlarining, tarbiyachining gaplarini yaxshi eshitadilar, turli tovushlarni, so'zlarni, ovozlarni tez sezadilar. Tarbiyachi bolalar nutqiga e'tibor berishi, ularga aniq, ravshan qilib, shoshamasdan gapireshni o'rgatib borishi, shuningdek, bolalar qulqoq, burun, tish, tomoqlarining toza va sog'lom bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilishi zarur. Ona tilida to'g'ri va toza gapireshni o'rganish uchun bolalar tevarak-atrofdagilardan to'g'ri nutqni eshitishlari lozim. Bolalarning tovush va so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishlariga ko'pincha kattalarning ular bilan noto'g'ri so'zlashishlari sabab bo'ladi.

Bolalarda nutqdagi tovush madaniyatini tarbiyalash vositalaridan biri tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashishda, hikoya aytish, she'rlar o'qishda tasviriy nutqni tarbiyalashdir. Bolalarda tasviriy nutqni, to'g'ri, osoyishta ohangni tarbiyalashda ham kattalar namuna bo'lishlari kerak. Shunda bolaning qulog'i yoshlikdan to'g'ri tasviriy intonatsiyaga ko'nikadi va o'rganadi. Bir tomondan, tevarak-atrofdagilarning intonatsiyasiga taqlid qilish, ikkinchi tomondan, mazmunni tushunish va uni hissiyot bilan to'latish bola nutqini tasviriy nutqqa aylantiradi. Tarbiyachi bolalarshshg nutqidagi tovush madaniyatini tarbiyalash uchun avvalo ularning nutq xususiyatlarini o'rganishi, ulardag'i tovush kamchiliklarini aniqlashi va shundan so'nggina uni tuzatish yo'llarini belgilashi kerak.

**Bolalar nutqini tekshirish usullari:** Guruhdagi hamma va alohida-alohida bolalar bilan ishni to'g'ri rejalashtirish uchun tarbiyachi har bir bolaning tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim. Buning uchun MTMga kelgan kunidan boshlaboq bolaning qanday so'zlashini tekshirish kerak. Tovushni talaffuz qilish bola bilan yakka so'zlashish vaqtida, kichkintoylar bilan o'yin paytida tekshirib boriladi. Masalan, «Top-chi, buni nima deyiladi?» degan o'yinni o'ynash jarayonida tarbiyachi bolalarga tekshiriladigan tovushlar so'zning boshida, o'rtasida, oxirida keladigan suratlarni ko'rsatib: «Top-chi, buni nima deyiladi?»—deb so'raydi. Masalan: ruchka, archa, kaptar, lola, qalam, stol, zirak, buzoq, xo'roz, shaftoli, mushuk, tosh, choynak, echki, mashina, samovar, qalam. Bu so'zlardan 5-6 yashar bolalar nutqini tekshirishda



ham foydalanish mumkin. Bolalar so'ralgan narsaning nomini to'g'ri aystsalar, plus (+) belgisi qo'yiladi, bordi-yu, noto'g'ri javob bersalar, xuddi javobning o'zi yozib qo'yiladi. Tekshirishni tana va yuz qismlarining nommni ayttirish orqali ham o'tkazish mumkin. Ular quyidagi so'zlar: bosh, soch, peshana, qosh, tish, til, ko'z, burun, yuz, lab, quloq, bo'yin, yelka, qo'l, qorin, barmoq, oyoq. Agar tarbiyachi har kuni 3-4 bolani tekshirib borsa, u holda bir hafta ichida u guruhdagi bolalar tovush talaffuzining ahvoli haqida ma'lumotga aga bo'ladi. Bu ma'lumotni esa kundalik hayot davomida bolalarni kuzatish jarayonida albatta to'ldirib boradi.

Nutqdagi tovush madaniyatini tekshirish bir yilda ikki marta o'tkaziladi. Birinchi tekshirish sentyabry, oktyabry oylarida, ikkinchisi esa o'quv yilining oxirida bolalarni boshqa guruhga o'tkazish vaqtida olib boriladi. Agar bolaning nutqi uncha o'smagan bo'lsa, uni alohida kuzatib, u bilan yakka tarzda ish olib boriladi. Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarkib toptirishning birdan-bir muhim vositasi eshitish nutqini rivojlantirishdir. Eshitish nutqining rivojlanishi bilan bola nutqni, ayniqsa, so'zning tovush tuzilishini tez va to'g'ri o'zlashtirib oladi. So'zning tovush tarkibini to'g'ri idrok qilish uni to'g'ri eslab qolishning muhim shartidir. Eshitish nutqi bolada juda erta rivojlanadi. 2-3 haftalik bolada nutqqa, ovozga nisbatan ba'zi bir terma reaktsiya boshlanadi; 5-6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ritmiga e'tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajratda oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo'lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir, lekin o'qish va yozishni o'rganish uchun yetarli emas.

**Adabiyotlar:**

1. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslar Toshkent o'qituvchi 1993- yil
2. Shomaxmudova R. Mo'minova L. Bolar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. "Toshkent" o'qtuvchi 1993-yil
3. Muminova L.R., Ayupova M. «Logopediya» T. 1993 y.



ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ  
ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

**Янгибоев Камол Норбоевич**

Қарши муҳандислик-иктисодиёт

институти тадқиқотчиси

тел: +998913220019

E-mail: k-yangiboyev@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarida qiziqishni oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlarini uzlusiz amalgalashuviga qarab hujum qilingan. O‘qitish sifatini oshirish, obyektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, an’anaviy o‘qitish uslublaridan innovatsion pedagogik texnologiyalardan faol foydalanishga o‘tish muammosining dolzarbliji masasalari talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Pedagog, ta’lim, innovatsiya, texnologiya, sifat, samaradorlik, faoliyat, natija.

Ta’lim tizimida doimiy ravishda yuqori natijalarga erishish yo‘llari izlanilib kelgan va bu yo‘lda didaktik vositalar, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelingan. Ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul yoki usullar majmuasini topishga doimo e’tibor qaratilgan. Buning natijasida turli uslubiyotlar paydo bo‘ldi. Pedagogik tajriba to‘planishi bilan yangi, samaraliroq uslubiyotlar yaratila bordi. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o‘sib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermas edi. O‘qitishdagi doimiylik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o‘z yechimini kutar edi.

O‘quv maqsadlarning noaniq va mujmal qo‘yilishi, shu bilan bog‘liq o‘qitishdan kutilgan natijaning yo‘qligi, an’anaviy ta’lim maktabining kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, ta’lim muassasasi, o‘qitishdan kutiladigan natija yo‘qligidek, ortiqcha daxmazaga yo‘l qo‘ya olmaydi. O‘qitish natijasi aniq va erishiladigan bo‘lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislarga ehtiyoj ham noaniq bo‘ladi va ular talab qilib olinmaydi. An’anaviy o‘qitish maktabiga tayangan ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo‘lmaydi. Shuning uchun, o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchi-talabalar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzlusiz davom ettirilmoqda. O‘qitish sifatini oshirish, obyektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o‘qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o‘tish muammosining dolzarbliji ortib bormoqda.

O‘quv maqsadlarining turli-tumanligi, ta’lim mazmuni elementlarining xilma-xilligi (o‘quv materiali turlari), talabalarning individual xususiyatlari oliy darajadagi yagona o‘qitish usuliga erishishga to‘sqinlik qiladi [1].

O‘qitish amaliyotida, o‘qitishning turli tuman yo‘llari, usullari va shakllari keng qo‘llaniladi. Ammo o‘qitishda yagona samarali (integral) yondashuv sohasidagi izlanishlar jadallik bilan hamon davom ettirilmoqda. O‘qitishni, o‘ziga xos ishlab chiqarish texnologik jarayonga aylantirishi mumkin bo‘lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda.

Jamiyat xodimini shakllantirish uchun, jamiyat ishlab chiqarishning yangi talablariga javob beradigan, yangi ta’lim texnologiyasi zarur bo‘ladi, yangi turdagilari xodim uchun yangi turdagilari pedagog mos keladi [2]. Sistema texnika majmuasi taraqqiyotining uch bosqichiga mos, ta’lim tizimida o‘qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, o‘qituvchi o‘z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko‘nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo‘ladi (qadimgi davrdagi hunarmandga o‘xshash). Uning «asboblari» - yo‘llari, usullari individual bo‘lib, pedagogik iste’dodining mevasidir, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali va texnik vositalar unga meros qolgan yoki o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, unda o‘qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko‘rinishini oladi. Bunga, kitob chop etishning paydo bo‘lishi, pedagogik mehnatning bo‘linishi va ixtisoslashuvi sabab bo‘ldi [3]. Bu yerda pedagogik jarayon, oqilona tashkil etilgan, o‘qitish ma’lum qoidalar bo‘yicha amalgalashuviga qarab hujum qilingan. Ushbu sharoitlar bilimni obyektivlashtirish imkonini berdi. O‘qituvchi sanoatlashgan (industrial) jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o‘xshab, sanoatlashgan (industrial) turdagilari xodimiga aylanadi.



Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan xarakterlanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o'qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin. O'qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odadta, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari hisoblanadi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi, ishlab chiqarish - texnologik sohasidan olingan, o'ziga xos ma'lum qoida va tamoyillarga ega bo'lgan, «texnologiya» tayanch iborasini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasida, mahsulotni tayyorlash uchun, ishlab chiqarishni tayyorlash talab etiladi, u turli xildagi ilmiy-tadqiqot konstrukturlik, texnologik, tashkiliy-rejaviy tadbirlarni qamrab oladi [4].

Oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ham shunga o'xhash tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash bosqichlari va ishlab chiqarishni tayyorlash bosqichlari juda o'xhashdir.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning birinchi bosqichida ilmiy-tadqiqotlar natijasi bo'yicha konstrukturlik tayyorgarligi amalga oshiriladi, ta'lim esa davlat ta'lim standartlari (ta'lim sohasi «konstruksiysi»ni aniqlovchi) tayyorlanadi.

O'qitish jarayoni bilan ishlab chiqarish texnologik jarayon taqqoslash asosida – pedagogik texnologiya o'zida o'qitishning zamonaviy samarali shakl va usullarini qamrab olganidek, zamonaviy ishlab chiqarish - texnologik jarayon ham mahsulot tayyorlashning eng samarali usullarini qamrab olishini ta'kidlash mumkin.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning ikkinchi bosqichida konstrukturlik tayyorgarlik bajarilgandan so'ng ishlab chiqarishning tayyorgarligi amalga oshiriladi, uning o'zagini – detallarni tayyorlash, mashina uzellari va agregatlarini yig'ish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish - tashkil etadi [5]. Texnologik jarayonlar – texnologik xaritalar va ularning to'plamlari ko'rinishida rasmiylashtirildi. Texnologik jarayonning texnologik xarita ko'rinishida aks ettirilishi, yuqori malakaga ega bo'limgan ishiga, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatini beradi, chunki texnologik xarita mahsulot tayyorlashning barcha bosqichlari – materiallar, tayyorlash, jihozlar, texnologik operatsiyalar mazmuni va ketma-ketligi, ishlov berish sharoitlari, asboblar, vaqt meyorlari, sifat nazorati vositalari keltiriladi. Ishlab chiqarish - texnologik jarayon, - minimal material va insoniy manbalar xarajatlari, ishlab chiqarishning maksimal mehnat unumдорлиги va rentabelligi bilan zaruriy sifatdagi mahsulot olinishiga imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqilgan texnologik jarayonsiz, zamonaviy samarali ishlab chiqarish bo'lishi mumkin emas [6]. Ishlab chiqarish sohasiga o'xshab, ta'lim sohasida davlat ta'lim standartlari yaratilgandan so'ng (ta'lim «konstruksiya»si barpo etilishi) – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o'quv rejalar, fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalari loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o'quv ishlarini hisoblash uchun vaqt meyorlarini o'rnatish va h.k.), u ta'lim jarayonini tartibga soladi, ta'lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.

### Pedagogik texnologiya tamoyillari.

Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko'ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu barcha tamoyillar o'zarobog'liq bo'lib, biri birini talab etadi va to'ldiradi. Bu tamoyillar asosida o'quv jarayoni tashkil etiladi, ya'ni uning tayyorgarligi va o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari qamrab olingan. «Pedagogik texnologiya» fani ko'rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi.

#### 1. Ilmiylik tamoyili.

Bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o'quv rejalarini va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etish aniqligi va qat'iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga, juda katta e'tibor qaratishni talab etadi.

#### 2. Loyihalanish tamoyili

Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili - bu o'quv jarayonini tashkil etish, hujjalarni – o'quv jarayoni grafigi; ishchi o'quv reja; fanning ishchi o'quv dasturi; fanning, bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv



maqsadlari toifalari; o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi. Ishlab chiqarish texnikaviy sohada, loyihalanish bazaviy hisoblanadi, ya'ni binolar va inshootlar, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari oldindan loyihalanadi.

### 3. Tizimlilik tamoyili

Pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o'quv jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati – talabalarni o'qitishga rag'batlantiradi.

Bu yerda, o'quv jarayoni va o'qitish jarayoni tushunchalarini aniq ta'riflash zarurligini qayd etmoq, joizdir [7]. Agar bu tushunchalarni ishlab chiqarish sohasi bilan solishtiradigan bo'lsak, ular ishlab chiqarish jarayoni va texnologik jarayon tushunchalari bilan mos keladi. Ishlab chiqarish jarayoni ikki qismidan – ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik jarayonlaridan iborat.

Ishlab chiqarishni tayyorlash qismida - ishlab chiqarilishi ilmiy tadqiqot jihatdan asoslash masalalari yechiladi, mahsulotlarni tayyorlashning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tayyorlanadi, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar bajariladi.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonida - mahsulotni tayyorlash bo'yicha texnologik operatsiyalar bajariladi.

Ishlab-chiqarish jarayoniga o'xshab, o'quv jarayoni ham ikkita qismidan – o'quv jarayonini tayyorlash va o'qitish jarayonlaridan iborat.

O'quv jarayonini tayyorlash qismida – o'quv jarayoni grafigi va ishchi o'quv reja ishlab chiqiladi, mashg'ulotlar jadvali tuziladi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'quv uslubiy materiallar va boshqalar ishlab chiqiladi. O'qitish jarayoni qismida – bilimlar, malakalarga ega bo'lish va ular sifatini baholash amalga oshiriladi.

Tizimlilik tamoyilining bazaviy ekanligi, pedagogik texnologiyaning o'qitishning boshqa yondashuvlaridan farq etuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi.

### 4. Maqsad yo'naltirilganlik tamoyili.

O'quv jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun o'matiladigan maqsad, aniq va o'lchaniladigan bo'lishi shart. Bixevoirizm g'oyalariga tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo'nalishning xususiyati – organizmni qo'zg'atishga bevosita bog'liqligini shak shubhasiz tan olish va uni bu qo'zg'alishga undashdan ibortdir.

Bixevoirizm, o'qitish jarayonida kechadigan organizm ichidagi jarayonlarni o'rganmaydi, u faqat tashqaridan kuzatiladigan jarayonlarni (ya'ni pirovard natijani) tahlil qiladi, qo'zg'atish (rag'batlash) va yechimlar orasidagi bog'lanishni o'rganish bilan cheklanadi [8].

Pedagogik texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili – tirik organizm tanasining skletiga o'xshaydi. Umuman o'quv jarayoni uchun, bu tamoyil ahamiyatini baholash haddan tashqari qiyindir. Buning uchun o'qitishning eng ko'p tarqalgan ta'rifini keltirish yetarlidir:

«O'qitish - bu o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni bo'lib uning davomida inson ma'lumotli bo'ladi». Ushbu ifodadan, o'qitish sifati, maqsadlarni shakllantirish sifatiga bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyada, maqsadlarni shakllantirish umumiyligidan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, mazkur o'quv fanining ma'lum mutaxassisni tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati aniqlanadi.

Buning uchun Davlat ta'lim standartidan foydalaniladi, uning asosida fanning umumiyligi o'quv soatlari o'quv mashg'ulotlari turi – leksiya, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar – bo'yicha bo'linadi. So'ngra, quyidagicha o'quv maqsadlari shakllantiriladi:

Tayanch iboraning o'quv maqsadi

Mavzuning o'quv maqsadi

Bo'limning o'quv maqsadi

Fanning o'quv maqsadi

### 5. Faoliyat yondashivi tamoyili

Ilmiy texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Balki ishlab chiqarish fanning jadal rivojlaniga sharoit yaratadi. Bu sharoitlarda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonning samaradorligi oshadi. O'quv



reja, fanlar dasturi, mashg‘ulotlar turi bo‘yicha o‘quv soatlari, mutaxassis faoliyatining bat afsil tahlili asosida o‘rnatalishi maqsadga muvofiqdir - hozirgi paytda «yuz bor eshitishdan ko‘ra, bir bor ko‘rish afzaldir» degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi. «Hozirgi zamon sharoitida, o‘quv jarayoni «yuz bor ko‘rmoqdan ko‘ra, bir bor bajarish afzal» degan tamoyilga asoslanib tashkil etilishi kerak. Kasb ta’limi maktabi uchun, bu tamoyil o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

Mutaxassis faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning nazariy, amaliy bilimlari va malakalari shakkantiriladi. Hozirgi sharoitda, pedagogik fanda mavjud «nazariya va amaliyotning bog‘liqlik tamoyili» sifat jihatdan yangi ma’noga «faoliyat yondashuvi tamoyili» ko‘rinishida aks ettiriladi. Ushbu tamoyil, nafaqat nazariya va amaliyot bog‘liqligini balki ularning o‘zaro ta’sirini, o‘zaro kuchayishini, o‘quv jarayonini mutaxassis ishlab chiqarish faoliyatini hozirgi va kelgusi talabalariga tayanishishini, hisobga oladi.

«Faoliyat» tushunchasining mohiyati o‘z ichiga maqsad, vosita va jarayonni o‘zini qamrab oladi. Mutaxassis faoliyatining tahlilida, ushbu tashkiliy qismlar va ularning o‘zaro ta’siri inobatga olinishi kerak. Bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga imkoniyat beradi. «Faoliyat» tushunchasining mazmuni nuqtai nazaridan, o‘quv jarayoni ham maqsadlari, vositalari, natijasi va jarayonni o‘zi bilan xarakterlanadi. O‘quv jarayoni, bo‘lajak mutaxassisning o‘quv faoliyati sifatida tasvirlanadi.

Umuman olganda, o‘quv jarayoni, mutaxassis faoliyatining ko‘zgudagi aks tasviridek bo‘lishi lozim. Ularning muvofiqlik darajasi, mutaxassis tayyorlashning sifatini belgilaydi.

#### 6. Boshqariluvchanlik tamoyili.

Pedagogik texnologiya o‘qitishning rejalshtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o‘quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqariluvchilik tamoyilining ahamiyati shu bilan belgilanadi. Boshqarish – jarayonni rejalshtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil o‘qitishning joriy natijalarini ko‘p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o‘tkazish imkoniyatini, - ko‘zda tutadi butun o‘qitish davrida o‘qitish jarayonini boshqarish asosan didaktik testlardan foydalanib amalga oshiriladi. O‘qitish jarayonida didaktik testlardan foydalanish, teskari aloqani ta’minlaydi. Teskari aloqa natijalarining tahlili, ko‘zlangan natijaga erishish uchun vositalar va uslublarni o‘zgartirish orqali o‘qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Boshqarilish tamoyili, o‘qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

#### 7. Qayta takrorlanish tamoyili

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan yaratilgan texnik xujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, qancha mahsulot ishlab chiqarish kerak bo‘lsa, shuncha marta texnologik jarayon qayta takrorlanishini anglatadi. Yaratilgan texnologik hujjatlar mavjudligi tufayli, texnologik jarayonni ko‘p marotaba qayta takrorlash mumkin. Ishlab chiqarish-texnikaviy sohadagi ushbu yondashuv. «Texnologiya» fanning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqidir. Aynan, shu ilmiy fan materiallarni olish, ishlov berish, qayta ishslash usullarini yaratish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadi. Ishlab chiqarishda, texnologik jarayonni amalga oshirish uchun texnologik xaritalar tayyorlanadi. O‘quv jarayonini tashkil etishda, qayta takrorlanishi tamoyili ham shunga o‘xshash ahamiyatga egadir. Qayta takrorlanish tamoyili, ma’lum fani bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritani, turli guruhlarda turdosh ta’lim muassasalarida boshqa subyektlar bilan ko‘p marotaba (takroriy) qo‘llash imkoniyatini anglatadi.

Shunday qilib, takrorlanish tamoyili, pedagogik texnologiyaning mohiyatini – o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolati bilan uni turli guruhlarda ko‘pchilik o‘qituvchilar tomonidan ko‘p marotaba qo‘llash imkoniyatini belgilaydi.

#### 8. Samaradorlik tamoyili

Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko‘rsatadi. O‘quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihsanish, tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirib erishiladi.

Maqbullashtirilgan o‘quv jarayoni xususiyatlari:

O‘quv jarayoni elementlarini tahlil etish va maqbullashtirish asosida, uni maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli loyihsanish;

Davlat ta’lim standartlari asosida o‘quv maqsadlari toifalarini aniq o‘rnatish yo‘li bilan bilimlar va malakalarni o‘zlashtirish darajasi maqbullashtirilgan. Bu bilan ta’limning ommaboplighiga va o‘quv dasturlarini bajarilishiga erishiladi;



Bilimlar va ko'nikmalarini o'zlashtirilishining tizimliligi, ketma-ketligi va mustahkamligi, muntazam diagnostik testlar o'tkazilishi va o'qitish jarayonini boshqarilishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanilish orqali ta'minlanadi;

Shaxsga-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini qo'llanilishi – talabalarni faollashtirish, shaxsni rivojlantirish, o'quv vaqtidan maqbul foydalanishni ta'minlaydi;

Bir marta tuzilgan o'quv hujjalari asosida o'quv jarayonini ko'p marotaba takrorlash imkoniyati orqali pedagogik texnologiyada iqtisodiy samaraga erishiladi.

Xulosa o'mnida shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya, ommaviy ta'lim sharoitida davlat ta'lim standartlari talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

O'quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o'qitish jarayonini (ishlab chiqarish - texnologik jarayonda, bu mahsulot tayyorlashning texnologik operatsiyalari, uni maqbullashtirish va samaradorligini o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonini birxillashtirish (unifikasiyalash), o'qitishda maksimal samaradorlikka yetishish, pedagogik texnologiyani yaratish va qo'llash orqali erishiladi.

Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalari, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi obyektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi, tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlardan qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Yuqori malakali pedagog o'zning pedagogik qobiliyatini tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O'qitish jarayonining mavjud obyektiv qonuniyatlarni o'rganish va qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog'liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va obyektlashgan bo'lsa, uni ro'yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta'limning butun amaliyotida o'z tasdig'ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti, odamning bevosita ishtirosiz ham, o'qitishning usul va yo'llari tizimi, amalgalash mumkinligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma'lum mahsulot uchun ishlanganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, talabalarni to'la o'zlashtirishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayondek, rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авлиякулов Н.Х. Замонавий ўқитиши технологиялари. Ўқув қўлланма. -Т: 2001. – 68 с.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Ташкент: Молия, 2002.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М: Наука, 1989. -192с.
4. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. - М: Знание, 1989 - 80 с.
5. Махмутов М., Ибрагимов Г.И., Ушаков М.А. Педагогические технологии, развитие мышления учащихся. – Казань: 1993 – 88 с.
6. Назарова Т.С. Педагогические технологии новый этап эволюции. – М: Педагогика. 1997. - С. 20-26.
7. Сайдахмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т.: Таълим маркази, 1999. -55 с.
8. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии.- М., Народное образование, 1998. – 130 с.



## ТАЪЛИМДАГИ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ЖАРАЁНИНИНГ АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЎҚИТУВЧИ ШАХСИННИНГ ПЕДАГОГИК УСЛУБИ

Сарибоева Шахноза Мусурмоновна

ГулДУ "Психология" йўналиши

II босқич магистранти

Тел: 93 818 98 48

**Аннотация:** Мазкур мақолада таълимдаги психологик тадқиқотлар жараёниниң асосий босқичлари ва ўқитувчи шахсининг педагогик услуби ва ўқувчиларнинг ўзлаштириш хусусиятлари, ўқитувчининг малака ва компитенцияларни баҳолаш мазмуни, максади, вазифалари ва келиб чиқиши тарихи, касбий танлов ва касбий мотиватциянинг ривожланиши ва шаклланишидаги кўринишлари бўйича кўнкма ва малакаларини шакллантириш ва очиб бериш масалалари хусусида мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар:** Метод, методика, касбий компетенция, касбий педагогика, касбий маҳорат, касб таълим методлари, касб таълим услубиётлари.

Ҳар бир ёш даврининг психологик хусусиятларини ҳисобга олган холда тарбиявий таъсири ўтказиши инсонда ўз вақтида ўзини англашни вужудга келтиради. Шахсада ўзини англаш туйғуси қанча эрта уйғонса, шахсий нуқтаи назар, ўз хукуқини ҳис этиш, ўзининг ақлий ва жисмоний имкониятларини баҳолаш шунчалик тез пайдо бўлади. Худди шу аснода инжиқлик, ўжарлик ва қайсарлик каби иллатлар таркиб топишига руҳий тўсик вужудга келади. Кишиларда эътиқод, дунёқараш, идеал, муомала, мулоқот, мустақил хулқ-авторни самарали шакллантириш кўпроқ юқорида қайд этилган омилларга боғлиқ бўлади. Шу сабабли ҳам уларга ёш психологияси хусусиятларидан келиб чиқсан холда руҳий туртки бериш максадга мувофиқ бўлади.

Таълимдаги психологик тадқиқотлар жараёниниң асосий босқичлари Педагогик психология фани ҳам психология илмининг бошқа соҳалари сингари ўзининг илмиy-тадқиқот методларига эга. Психологик қонуниятларни муайян режа асосида олиб бориладиган текширишлар туфайлигина холисона аниқлик киритиш мумкин. Психологик тадқиқотлар жараёнини қўйидаги асосий босқичларга бўлиш мақсадга мувофиқ бўлади:

1. Муаммонинг қўйилиши. Ҳар қандай илмиy-текшириш ишлари каби, психологида олиб бориладиган илмиy текшириш ишлари ҳам назарий ва амалий аҳамиятга эга бўлган муаммони аниқлашдан, шунингдек бу муаммо фанда қанчалик ёритилганлигини аниқлаш мақсадида мазкур мавзуга оид илмиy ва маҳсус адабиётларни таҳлил қилишдан бошланади.
2. Тадқиқот методикасини танлаш. Психологик тадқиқотлар турли методлар билан олиб борилади. Текширишларнинг муваффакиятли чиқиши кўп жиҳатдан методни тўғри танлашга боғлиқ бўлади.
3. Маълумотларни тўплаш. Тўпланган маълумотлар ўрганилаётган муаммога мос бўлиши ёки уларни тўплаш мақсадга мувофиқ равишда олиб борилиши зарур. Илмиy маълумотларга бўлган асосий талаблар - бу уларнинг холисона, тўла ва изчил бўлишидир. Тўпланган маълумотлар ўрганилаётган муаммони ҳар жиҳатдан тавсифлаб бериши керак.
4. Маълумотларни кайта ишлаш. Тўпланган маълумотларни математик ва мантиқий жиҳатдан ишлаб чиқиш умумийликни, хусусийликни топиш ва уларни тасодифий маълумотлардан ажратиш имконини беради. Кузатиш орқали турли одамларнинг дикқати, ҳис-туйғулари, нерв системасининг ташқи ифодалари, темперамент хусусиятлари, имо-ишоралари, сезгирилиги, нутқ фаолияти ва ҳоказолари ўрганилади. Аммо, ўта мураккаб ички психологик кечинмалар, юксак ҳиссиётлар, тафаккур, мантиқий хотира ва ақлзаковатни тадқиқ этишга бу методнинг имкони етмайди. Сухбат методи эркин, нутқий муносабат туфайли олинган киши психик фаолиятининг холосасини текшириш демакдир. Бу метод ёрдамида инсон психикасини ўрганишда сухбатнинг мақсади ва вазифаси белгиланади, унинг обьекти ва субъекти танланади, якка шахслар, гурух ва жамоа билан ўтказиши режалаштирилади, ўрганилаётган нарса билан ўзвий боғлиқ савол-жавоб тартиби тайёрланади. Сухбатнинг бош мақсади муайян бир вазият ёки муаммони ҳал қилиш жараёнида инсон психикасидаги ўзгаришларни ўрганишdir. Сухбат орқали турли ёшдаги одамларнинг тафаккури, ақлзаковати, хулқ-автори, қизиқиши, билим савияси, эътиқоди, дунёқарashi, иродаси тўғрисида маълумотлар олинади. Биографик (таржима ҳол) методи. Инсон психикасини тадқиқ қилиш учун унинг ҳаёти, фаолияти, ижодиёти тўғрисидаги оғзаки ва ёзма маълумотлар 18 биографик



метод орқали ўрганилади. Бу борада кишиларнинг таржимаи ҳоли, кундалиги, хатлари, эсдаликлари, ўзгалар ижодига берган баҳолари, тақризлари алоҳида ўрин эгаллайди. Шу билан бирга ўзгалар томонидан тўпланган таржимаи ҳол ҳақидаги материаллар: эсдаликлар, хатлар, расмлар, тавсифлар, баҳолар, аудио овозлари, фотоловҳалар, ҳужжатли филёнлар, тақризлар ўрганилаётган шахс ҳақида тўла тасаввур этишга хизмат қиласди. Таржимаи ҳол маълумотлари инсон психикасидаги ўзгаришларни кузатишда, унинг сухбат ва тажриба методлари билан ўрганиб бўлмайдиган жиҳатларини очишида ёрдам беради. Биографик маълумотлар одамларнинг ўзини ўзи тарбиялаши, назорат қилиши, идора этиши, ўзининг услубини яратиши, камолот чўққисига эришиши жараёнида намуна вазифасини утайди.

Мавзу юзасидан хулоса шундай қилиб, психология илмининг тармоғи сифатида, таълим ва тарбиянинг шахсга самарали таъсир этувчи омиллари, қонуниятлари ва механизмларини ўрганувчи фан бўлиб, асосий масалалар ёшларнинг ўқув масканларидаги ҳамда таълим-тарбия муассасаларидағи фаолият ва ҳатти-ҳаракатларининг психологик қонуниятларига дахлдордир. Педагогик психологиянинг предмети сифатида ўқув масканида билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш қонуниятларини, бу жараёнларда содир бўладиган индивидуал тафовутларни, ўқувчиларда фаол, мустақил ва ижодий тафаккурни таркиб топтириш қонуниятларини тадқиқ этиш ҳисобланади.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Толипов Ў., Баракаев М., Шарипов Ш., “Касбий педагогика” – Т.,2001 йил.
2. Хаджабоев А., Хусанов И. “Касбий таълим методологияси” – Т., 2007 йил.
3. Баракаев М., Курбанова Г. ““Касбий таълим” йўналиши бўйича педагогик амалиётни ўtkazish metodikasi”. – Т., 2007 йил
4. Миллий ғоя ва мағкура илмий- амалий маркази. Бегматов. А. Т. 2009 й.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ЗЗ-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(10-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000